



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI BANDIXON TUMANI HOKIMINING**  
**QARORI**

Bandixon tumani Mustaqillik ko‘chasi. 1-uy.190300, tel.: (+99876)374-15-71, (bandixon.t@exat.uz,) doc.@sdv.uz

2022 года «20» мая

227-8-211-Q/22

Хокимият Бандихонского района

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi “Quy  
bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha  
qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 196-sonli hamda viloyat hokimining  
2022-yil 17-maydagi 311-8-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash haqida**

Suv resurslarini samarali boshqarish, ularning hisobi va hisobotini to‘laqonli yuritish, suv iste‘molchilari o‘rtasidagi suv munosabatlarini takomillashtirish, ushbu jarayonlarga xususiy sektorni keng jalb qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi “Quy bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 196-sonli hamda viloyat hokimining 2022-yil 17-maydagi 310-8-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq

**QAROR QILAMAN:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi “Quy bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 196-sonli hamda viloyat hokimining 2022-yil 17-maydagi 310-8-0-Q/22-sonli qarorlari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (Sh.Norqo‘chqarov), Moliya bo‘limi (I.Jonqobilov), aloqador tashkilotlar bilan bir oy muddatda tuman Irrigatsiya bo‘limi tarkibida suv iste‘molchilariga suv yetkazib berish, xo‘jaliklararo sug‘orish tarmoqlaridan foydalanish, ularni ta‘mirlash-tiklash va boshqa suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish ishlarini tashkil qilish bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan maxsus xizmat (keyingi o‘rinlarda - suv xo‘jaligining maxsus xizmati) tashkil etilishini ta‘minlasin.

3.Quyidagilar:

davlat suv xo‘jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida boshqaruvga oladigan klasterlar ro‘yxati 1-ilovaga;

davlat suv xo‘jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy sherikka berish hamda xususiy sherikning investitsiya salohiyatini o‘rganish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman ishchi guruhi 1-ilovaga muvofiq davlat suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish uchun xususiy sektorni keng jalb qilishga mas‘ul ekanligi belgilansin hamda ushbu suv xo‘jaligi obyektlarini 2023-yil 1-aprelga qadar davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy sektorga berishni tashkil qilsin.

5. Tuman Irrigatsiya bo'limi (Sh.Norqo'chqarov), Qishloq xo'jaligi bo'limi (T.Allaniyozov), Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (F.Berdiev), aloqador tashkilotlar.

a) uch oy muddatda quyi bo'g'indagi barcha sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari hamda boshqa suv xo'jaligi obyektlarini xatlovdan o'tkazsin.

Xatlov natijalariga asosan:

qishloq xo'jaligi yer uchastkalari mavjud bo'lgan klasterlarga - ularga tegishli maydonlardagi barcha xo'jaliklararo va ichki sug'orish hamda kollektor-drenaj tarmoqlari, ulardagi bosh va ichki suv olish hamda boshqa suv xo'jaligi obyektlarini ichki suv xo'jaligi xizmatini tashkil qilish, ulardan maqsadli foydalanish, ta'mirlash-tiklash va rekonstruksiya qilish uchun;

suv iste'molchilariga - ularga bevosita xizmat ko'rsatuvchi ichki sug'orish tarmoqlari, ulardagi bosh va ichki suv olish hamda boshqa suv xo'jaligi obyektlarini ulardan maqsadli foydalanish, shuningdek, ta'mirlash-tiklash uchun dalolatnomalar asosida xo'jaliklarga berilishini tashkil qilsin;

b) klasterlar, fermer xo'jaliklari va boshqa suv iste'molchilarining bosh suv olish joylarini namunaviy ishchi chizmalar asosida suvni boshqarish va hisobga olish vositalarini ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan ishlab chiqish va qurish, ularni foydalanishga qabul qilish, suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda moliyalashtirish tartibi yuzasidan tumanda jadval bo'yicha ko'rgazmali amaliy seminarlar o'tkazsin.

d) mahalliy budjet mablag'lari hisobidan klasterlar, fermer xo'jaliklari va boshqa suv iste'molchilarining bosh suv olish joylarida suvni hisobga olish va hisobotini yuritishni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirish bo'yicha 2022-2023-yillarda namunaviy uchastkalarni tashkil qilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Hamrayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Choriyev O'. A.

Bandixon tuman hokimining  
2022 yil 20 maydagi  
227-8-211-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

**Bandixon tumani davlat suv xo‘jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida boshqaruvga oladigan klasterlar**

**RO‘YXATI**

№	Tumanlar nomi	Klaster nomi	Klaster hisobidagi yer maydoni, ga	klasterlar boshqaruviga o‘tkaziladigan suv xo‘jaligi obyektlari					
				kanallar		kollektorlar		nasos stansiyalar	sug‘orish quduqlari soni, dona
				soni, dona	uzunligi, km	soni, dona	uzunligi, km	soni, dona	
1	Bandixon	“Bandixon Textile Cluster”	3 792	6	95,0	370	413,53	0	0
Jami			<b>3 792</b>	6	95,0	370	413,53	0	0

Bandixon tuman hokimining  
2022 yil 20 maydagi  
227-8-211-Q/22-son qaroriga  
2-ilova

**Bandixon tumanida davlat suv xo‘jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy sherikka berish hamda xususiy sherikning investitsiya salohiyatini o‘rganish bo‘yicha ishchi guruhi**

**TARKIBI**

- |                  |   |  |
|------------------|---|--|
| B.Hamrayev       | - | tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, ishchiguruh rahbari |
| Sh.Norqo'chqarov | - | tuman Irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari                          |
| T.Allaniyozov    | - | tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i  |
| R.Xurramov       | - | tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i   |
| I.Jonqobilov     | - | tuman Moliya bo‘limi boshlig‘i   |